## TOSHKENT VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




Toshkent viloyati bo‘yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 207,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,1 % ga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 359,3 mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati 83,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 848,6 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 104,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 310,0 mlrd. so‘mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga ko‘paygan) tashkil etdi.

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

*(mlrd. so‘m va foizda)*



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI-NING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
*(mlrd. so‘m, foiz)*

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **4 207,9** | **102,1** | **359,3** | **83,8** | **3 848,6** | **104,2** |
| ***Shaharlar:*** | | | | | | |
| **Nurafshon** | 112,5 | 107,7 | 2,3 | 6,5 m. | 110,2 | 105,9 |
| **Olmaliq** | 378,6 | 102,5 | 57,5 | 101,9 | 321,1 | 102,7 |
| **Angren** | 210,0 | 102,9 | 12,6 | 98,0 | 197,3 | 103,2 |
| **Bekobod** | 277,6 | 103,1 | 55,8 | 98,9 | 221,8 | 104,2 |
| **Ohangaron** | 76,5 | 103,5 | 9,2 | 67,6 | 67,3 | 111,7 |
| **Chirchiq** | 222,5 | 104,5 | 23,7 | 69,5 | 198,8 | 111,2 |
| **Yangiyo‘l** | 272,6 | 101,8 | 8,5 | 105,1 | 264,1 | 101,7 |
| ***tumanlar:*** | | | | | | |
| **Oqqo‘rg‘on** | 173,7 | 100,3 | 2,1 | 85,8 | 171,6 | 100,5 |
| **Ohangaron** | 65,3 | 103,1 | 8,6 | 3,3 m. | 56,7 | 93,4 |
| **Bekobod** | 92,3 | 102,9 | 4,0 | 2,1 m. | 88,3 | 100,6 |
| **Bo‘stonliq** | 190,0 | 101,8 | 5,2 | 50,9 | 184,8 | 104,7 |
| **Bo‘ka** | 149,5 | 101,6 | 2,0 | 37,8 | 147,5 | 104,0 |
| **Quyi Chirchiq** | 73,0 | 101,7 | 0,8 | 63,3 | 72,2 | 102,4 |
| **Zangiota** | 533,9 | 101,1 | 21,1 | 80,7 | 512,8 | 102,2 |
| **Yuqori Chirchiq** | 144,7 | 104,4 | 7,0 | 25,5 | 137,7 | 123,9 |
| **Qibray** | 271,4 | 101,2 | 16,7 | 67,9 | 254,6 | 104,5 |
| **Parkent** | 172,6 | 103,5 | 1,7 | 25,9 | 170,9 | 106,5 |
| **Piskent** | 101,6 | 100,6 | 2,6 | 60,9 | 99,0 | 102,3 |
| **O‘rta Chirchiq** | 72,2 | 100,3 | 8,1 | 65,6 | 64,1 | 107,5 |
| **Chinoz** | 191,6 | 100,8 | 58,0 | 92,1 | 133,6 | 105,0 |
| **Yangiyo‘l** | 189,0 | 100,1 | 5,8 | 66,7 | 183,1 | 101,7 |
| **Toshkent** | 236,9 | 100,6 | 45,9 | 91,9 | 191,0 | 103,0 |

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Nurafshon, Chirchiq va Ohangaron shaharlari hamda Yuqori Chirchiq va Parkent tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga kamaydi va 359,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,5 % ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 3 848,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,2 % ga o‘sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,5 % ga teng keldi.

**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HUDUDLAR KESIMIDA**
*(ulushi, % da)*




**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI**
*(ulushi)*



**TOSHKENT VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI** *(ming so‘m)* **VA O‘SISH SUR’ATLARI** *(foizda)*

2020-yilning yanvar-mart oylarida o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 428,0 ming so‘mni tashkil etdi (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 0,5 % ga o‘sdi), viloyatning barcha shaharlarida va ayrim tumanlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlari o’sish sur’atlari kuzatildi.

| | Hajm, ming so‘mda | O‘sish sur’atlari, % da |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **1 428,0** | **100,5** |
| ***Shaharlar:*** | | |
| **Nurafshon** | 2 306,3 | 106,4 |
| **Olmaliq** | 2 883,2 | 101,0 |
| **Angren** | 1 112,8 | 101,4 |
| **Bekobod** | 2 891,8 | 101,4 |
| **Ohangaron** | 2 014,2 | 100,8 |
| **Chirchiq** | 1 413,5 | 103,5 |
| **Yangiyo‘l** | 4 497,7 | 100,3 |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oqqo‘rg‘on** | 1 651,0 | 98,6 |
| **Ohangaron** | 681,3 | 101,7 |
| **Bekobod** | 585,8 | 101,3 |
| **Bo‘stonliq** | 1 123,9 | 100,7 |
| **Bo‘ka** | 1 189,1 | 100,0 |
| **Quyi Chirchiq** | 675,7 | 100,1 |
| **Zangiota** | 2 700,5 | 99,7 |
| **Yuqori Chirchiq** | 1 067,3 | 102,6 |
| **Qibray** | 1 352,1 | 99,7 |
| **Parkent** | 1 112,6 | 101,6 |
| **Piskent** | 1 005,7 | 99,0 |
| **O‘rta Chirchiq** | 482,5 | 98,6 |
| **Chinoz** | 1 432,0 | 99,2 |
| **Yangiyo‘l** | 899,0 | 98,5 |
| **Toshkent** | 1 311,2 | 99,1 |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Yangiyo‘l (4 497,7 ming so‘m), Bekobod (2 891,8 ming so‘m), Olmaliq (2 883,2 ming so‘m) shaharlari va Zangiota (2 700,5 ming so‘m) tumani hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning sababi, ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

**TOSHKENT VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI**
*(ming so‘mda)*




**TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O‘SISH SUR’ATLARI**
*(foizda)*



2020-yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 103,2 mlrd. so‘mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 73,9 % ulushi kichik biznes sub’yektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining yuqori ko‘rsatkichi Olmaliq shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 22,7 %) to‘g‘ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Chirchiq (11,0 %), Ohangaron (8,6 %), Angren (8,5 %) shaharlari va Qibray (8,4 %) tumanida kuzatildi.

**TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O‘SISH SUR’ATLARI**
*(foizda)*

**HUDUDLAR KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI HAJMI**
*(mlrd. so‘m)*



## HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI
*(mlrd. so'm)*
## VA O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O'ZGARISH SUR'ATLARI
*(foizda)*

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes subyektlari | % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **1 839,9** | **98,9** | **964,1** | **95,4** | **875,8** | **103,0** |
| ***Shaharlar:*** | | | | | | |
| **Nurafshon** | 38,2 | 4 m. | 29,2 | 1085 m | 9,0 | 94,4 |
| **Olmaliq** | 40,5 | 103,1 | 8,8 | 108,3 | 31,7 | 101,7 |
| **Angren** | 14,2 | 101,7 | | | 14,2 | 101,8 |
| **Bekobod** | 20,6 | 102,6 | 0,1 | 137,7 | 20,5 | 102,5 |
| **Ohangaron** | 12,5 | 102,3 | | | 12,5 | 102,3 |
| **Chirchiq** | 40,1 | 103,3 | 2,9 | 2,6 m. | 37,2 | 98,7 |
| **Yangiyo'l** | 53,8 | 101,8 | | | 53,8 | 102,7 |
| ***tumanlar:*** | | | | | | |
| **Oqqo'rg'on** | 1,7 | 102,5 | 0,01 | 105,5 | 1,7 | 102,5 |
| **Ohangaron** | 12,3 | 102,1 | 0,1 | 51,5 | 12,2 | 102,8 |
| **Bekobod** | 13,8 | 79,4 | 7,6 | 66,8 | 6,2 | 103,3 |
| **Bo'stonliq** | 21,0 | 102,5 | 0,1 | 68,4 | 20,9 | 102,8 |
| **Bo'ka** | 9,2 | 101,8 | 0,01 | 41,5 | 9,2 | 102,0 |
| **Quyi Chirchiq** | 7,1 | 100,2 | 0,03 | 106,6 | 7,1 | 100,2 |
| **Zangiota** | 208,5 | 103,9 | 3,1 | 3,9 m. | 205,4 | 102,8 |
| **Yuqori Chirchiq** | 33,0 | 83,8 | 0,2 | 2,4 | 32,8 | 105,3 |
| **Qibray** | 682,0 | 165,1 | 599,8 | 181,5 | 82,2 | 99,5 |
| **Parkent** | 31,5 | 102,7 | 0,01 | 0,7 | 31,5 | 105,2 |
| **Piskent** | 10,7 | 104,1 | 0,05 | 2,1 m. | 10,7 | 103,9 |
| **O'rta Chirchiq** | 245,1 | 44,8 | 228,9 | 42,5 | 16,2 | 178,0 |
| **Chinoz** | 98,0 | 80,5 | 80,8 | 76,6 | 17,2 | 105,5 |
| **Yangiyo'l** | 52,0 | 101,3 | 0,1 | 95,8 | 51,9 | 101,3 |
| **Toshkent** | 194,0 | 101,6 | 2,4 | 52,0 | 191,6 | 102,8 |

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon shahrida (4 barobarga), Chirchiq shahrida (103,3 %) va Qibray (165,1 %) hamda Piskent (104,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**
**Tel.:(71) 230-86-59**